



ALISHER NAVOIYNING JAMIYAT HAQIDAGI FALSAFIY QARASHLARI

Hoshimxonov Mo'min

Xalqaro k/ya

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14862717>

Annotatsiya: ushbu ilmiy maqolada o'zbek shoiri va mutafakkiri, she'riyat mulkining sultoni, davlat tilining asoschisi, ulug' daho, falsafiy she'riyati bilan jamiyatdagi, mustabid tuzumning turli nomaqbul sitamlarini, zulmlarini qalamining o'tkir tig'i bilan fosh qila olgan Alisher Navoiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Astrobod, qozi, pora, qit'a, siyosat, zolim, johil, vazir, ulus, fosiq, sharob, podshoh, hokim, botin, fir'avn, Homon, bek, jamoat, zulm, kufr, daryo, anhor, komillik, falsafiy, siyosiy, ma'rifat, buyuk, utopiya, g'azal, hukmdor, jamiyat, hokimiyat, imperiya, Qur'on, Iskandar oynasi, kishvar.

Inglizcha

Navoiy davri uchun yana bir tipik hodisa—poraxo'rlikni qamchilab, Sayid Abdullod Astrobodiy yozgan qit'aning «Majolis»da keltirilishidir. Aftidan Sayid Abdullod Astrobodiy Navoiy bilan hamsuhbat bo'lgan, Navoiy shaxsan ham xush ko'rgan kishilardan ko'rinadi.. Navoiy uning haqida:

«Xush tab» yigit edi, muhovarasi dag'i xo'b va ahloqi dag'i xo'b erdi» deb yozadi. So'ng Navoiy o'sha qit'aning yozilish tarixi va o'zini keltiradi:

«Xo'chon viloyatining qozisi eshak rishva berib, sadr ani qozi qilg'ong'a bu qit'asi mashhurdurkim:

Hame gasht dar shahr shaxse zi Xo'chon,

Ki qozi shavad, sadr rozi nameshud.

Bidodash xare rishvau gasht qozi....

Agar xar namebud, qozi nameshud» .

Tarjimasi: «Xo'chondan kelgan bir kishi qozi bo'lmoq uchun shaharda aylanardi, biroq sadr uning qozi bo'lishiga rozi emasdi. Oxirida bir eshakni sadrg'a pora berib, qozi bo'ldi. Eshak bo'lmasa qozi bo'lmasdi»..

Bunda ham yuqoridagi singari kichik bir hayotiy epizod orqali o'sha jamiyatning juda katta nuqsoni ustalik bilan ishlatilgan o'tkir so'z o'yini vositasila fosh qilinadi. Chindan ham talantli shoir o'z qit'asida pora oluvchi sadr ustidan ham, pora berib qozi bo'lgai kishi ustidan ham qattiq kuladi.

Navoiy "Mahbub ul-qulub"ning birinchi qismida siyosat falsafasi, podshohlar siyosati haqida fikr yuritadi. Alloma bu asarida zolim va johil podshohlarni, vazirlarni el, ulus boshiga kelgan balo, ofat deb tanqid qiladi. U



odil podshohni ko'zguga, zolim, johil va fosiq podshohni esa shu ko'zguning orqasiga o'hshatadi. "Ul (odil podshoh) yorug' subh bu (zolim, johil podshoh) aning qorong'u kechasidur. Zulm aning ko'ngliga marg'ub (yoqimli) va fisq (fasod, zararkunandalik) aning xotirig'a mahbub... Obod (joy)lar aning zulmidan vayrona". "Zolim podshoh doim ichadigan boda (sharob) seli chun bazmida tug'yon qilib, ul sel mulk ma'muralarin vayron qilib..." Zolim va johil podshohning noshoysta - yomon ishlari o'ziga yaxshi ko'rinadi, el ma'qul, yaxshi degan ishlarni u ma'yub (aybli) deb rad etadi. Zolim podshoh o'ziga ko'p xizmat qilganlarni kichik bir xatosi uchun xizmatlarini yo'qqa chiqaradi.

Alisher Navoiyning bu so'zlaridan u monarxiyaning absolyutizmini, mutlaq yakka hokimlikni qoralaydi, xususan, bunday yakka hokim ma'rifatsiz, demokratiyadan uzoq xalq fikri bilan hisoblashmaydigan zolim, johil bo'lsa, u bunday zolimlarga, johillarga nafratini yashirmaydi. Navoiy fikricha, bunday absolyutizm, hokimi mutlaqlik xalq uchun o'ta zararlidir. Bunday hokimi mutlaq hukm surar ekan, "chin der elga (to'g'ri, rost gapiruvchilarga) - jon xatari, xayrga (yaxshilikka) dalolat qiluvchiga ulum zarari. Hak (haqiqat, rost so'z) aning qoshida botil (yolg'on, soxta), xiradmand (aqlli, ma'rifatli odam) aning aqidasida johil... Bu yomon podshohki, bo'lg'ay vaziri ham yomon, andog'ki, Fir'avn (yaqinida) Homon... Tengri mundoq balolarni adam (yo'qlik) chohidan vujud taxtgohiga kelturmasun...".

Alisher Navoiy mustabid absolyutizmni qoralar ekan, zolim va johil podshohning vazirlari ham xalqni qiynovchi zolimlar ekanligini nafrat bilan tavsiflaydi. U zolim vazirni ilmsiz bo'lganidan bemorga zahar beruvchi tabibga o'xshatadi. "Bular (zolim vazirlar va ilmsiz tabiblar) jumlası chayonlar, xaloyiqqa yetkirur ziyonlar..." Navoiy zolim podshoh va johil vazir qo'l ostidagi fosiq va badmaosh beklarni, "bahodirlar"ni ham nafrat bilan tasvirlaydi: "Shoh eshigida yormoqni (nonni) zoe' qilguvchi (yaxshi xizmati bilan nonini halollab yemaydigan) jamoatkim, alardan na Tengriga toatdur va na shohg'a itoat. Tariqlari (yashash yo'li) xudnamolik va rasmlari (odatları) xudorolik (o'zboshimchalik yoki o'zini maqtash). Ishlari - mastlig', varzishlari (tarbiyalari) xudparastlik.

„Alisher Navoiy mutlaq hokimi mutlaqlikni, zulmni keskin tanqid qilish bilan birga, yakka hukmdorning jamiyat, xalq oldidagi mas'uliyatini, hukmdor yaxshi va yomon ishlari uchun, xalqini yomon yo'lga boshlagani uchun Tangri taolo oldida javob berishini eslatadi: "Agar shohga adolat shior, ulusi (eli) shiorida kam adolatdin osor. (Podshoh) agar zulmpesha, elida kam (uning) zulmidan andesha (g'am, tashvish). Agar u (shok) islomoyin, xalq shiori kam



islom bila din (ya'ni, podshoh Tangri g'azabidan qo'rqib, jabr-zulmdan tiyilsa, fuqarolari ham Xudodan qo'rqib, yomon ishlardan tiyiladilar). Agar ul kufrhisol - elga dag'i kufr, tariqi af'ol. Navoiy shu ma'noda shohni katta daryoga, qavmlarini, ijtimoiy guruhlarini katta daryoning irmoqlari - anhorlarga o'xshatadi. Daryo suvi achchiq (loyqa) bo'lsa, anhor suvi ham shunday. Daryo suvi chuchuk bo'lsa, anhor suvi ham shunday. Navoiy "Tarixi anbiyo va hukamo" asarida bu fikrni Arastu hakim aytganligini bildiradi.

Ma'lumki, Uyg'onish davri insonparvarligining g'oyaviy asosini inson shaxsining mustaqilligi, uning har qanday g'ayritabiiy (ilohiy) kuchlardan holi bo'lishi to'g'risidagi qarash tashkil etadi. Bu insonparvarlikning umumiy g'oyaviy manbai insonni qadrlash, uning shaxsini hurmat qilish qoidasidan iborat edi. Bu qoidadan insonparvarlikning falsafiy, siyosiy, axloqiy va estetik g'oyalari kelib chiqadi. Uyg'onish davri insonparvarligi muhim siyosiy g'oyasini — odil podsho rahbarligida ideal jamiyat qurish istagi tashkil etadi. Chunki insonning yashashi uchun munosib shart-sharoitlar yaratmasdan turib, uning orzu-umidlarini yuzaga chikarish mumkin emas. Insonparvarlik dunyoqarashining g'oyasi inson shaxsining fikr va hissiyot erkinligi to'g'risidagi qarashlardan iborat edi.

Renessans insonparvarligining bu xususiyatlari Navoiyning ideal jamiyat va komil inson xususidagi qarashlarida ko'rinadi. Shoir Iskandarning faoliyatini ko'rsatish orqali ideal podsho qiyofasi, uning vazifalari, ideal jamiyat haqidagi tasavvurlari, uii boshqarish yo'llari to'g'risida o'zining g'oyalari va maqsadlarini badiiy shaklda bayon etadi.

Navoiyning insonga muhabbati uning baxtli yashashi uchun munosib ijtimoiy muhit yaratish (ideal jamiyat qurish) zarurligini ham o'z ichiga oladi. Uning insonparvarligida axloqiy va siyosiy masalalarning o'zaro bir-birlari bilan uzviy bog'lanishini ko'ramiz. Shoir o'z axloqiy va ijtimoiy ideallarini yuzaga chiqarishning asosiy vositalarini ilm-ma'rifat va axloqiy tarbiya, deb biladi. Uning fikricha, ilm dunyoni bi- lish, yaxshi-yomonni bir-biridan ajratish vositasi, axloqiy-ma'naviy kamolotga, insoniylikka olib keluvchi vositadirki, u inson qalbini boshqa odamlarga nisbatan hamdardlik va mehr-muhabbat o'ti bilan alangalashtiruvchi bir ma'naviy kuch. Bu g'oya Farhod obrazida ravshan ifodalangan. Farhodning o'z shaxsiy baxtiga erishish yo'lida ma'rifat, ma'naviy kamolotga intilishi boshqalarga nisbatan ham muhabbat baxsh etish orzulari bilan uzviy bog'langandir. Shunga ko'ra, uning faoliyati, o'z shaxsiy baxtiga intilishi keng ijtimoiy ma'no kasb etadi. Farhodning muhabbati esa butun insoniyatga mansub shaklda namoyon bo'ladi.



Farhod inson buyuk ishlarni ro'yobga chiqarish uchun yaratilgan, bu yo'ldan uni hech qanday qiyinchiliklar, kulfatlar, dard, hasratlar ham to'xtata olmaydi deb qaraydi, natijada uning shaxsny muhabbati o'zining tor g'arazgo'ylik mohiyatini va shahvoniyligini yo'qotib, buyuk bir ma'naviy kuchga aylanadi. Bu kuch Farhod faoliyatining g'oyaviy manbaiga aylanib, uni olijanoblik va mardlikka, vafodorlik va do'stlikni sinashga, ezgu orzularga intilishga da'vat etadi.

Navoiyning ijtimoiy utopiyasi ungacha mavjud bo'lgan an'anaviy metoddan farq qiladi. Masalan, Nizomiy ham o'zining « Iskandarnoma» asarida qandaydir yerning chekkasida bo'lgan o'lka misolida va bu o'lkada hamma teng, teng taqsimchilikka asoslangan jamiyat, xususiy mulk, podsho yo'q bo'lgan, kishini kishi ekspluatatsiya qilmaydigan, mehnat hamma uchun majburiy, boy-kambag'al yo'q, o'g'irlik va zo'rlik bo'lmagan jamiyat haqida yozgan bo'lsa, Navoiy bu an'anaviy metoddan voz kechdi.

Alisher Navoiy o'zining ijtimoiy utopiyasini bayon qilishda diktaturaga murojaat qildi. Ya'ni podshoga va uni o'rab turgan muhitga ta'sir qilishga va haqiqat yo'lga boshlashga intiladi. Navoiyning bu harakatini uning amaliyotchi davlat rahbari bo'lganligi tufayli deb tushuntirishimiz mumkin.

U kambag'allarga xayrixoh va ularga g'amxo'rlik qilishga harakat qildi, ularni baxtli qilish hukmdorlarning in'om, irodasi orqali amalga oshadi, deydi.

Alisher Navoiy (Foniy) forsiy turkumga kirgan quyidagi g'azalini «Muxtara'» deb atagan. E.Shodievnig ta'kidlashicha, bu g'azalida shoir umr bo'yi adolatli xayotni, xayoliy adolatli hukmdor boshliq bo'lgan davlatni orzu qiladi. O'rta asr sharoitida uning bu oliyjanob, ulkan orzulari amalga oshishi mumkin emas edi. Shuning uchun ham u ba'zida yangi bir olamni, o'zi turgan olamga mutlaqo o'xshamaydigan o'zgacha olamni orzu qiladi:

Bir olam istaymanki, unda bu olam xalqi bo'lmasa,
Bu olam mardumining jafosidin g'am bo'lmasa.
Na uning kunduzida asrlar ko'z yoshidin qatl seli ko'rinsa.
Na kechasida g'ariblar ohidin motam libosi bo'lsa.
Na unda falak zulmidin yuz alamli bir ko'ngil.
Na sitam qilichidin mahramsiz dil yarasi bo'lsa.
Ey dil, bu havaslaring ro'yobga chiqmasa mayxonaga bor.

Chunki undagi har ko'hna safol jamshidning jomi bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, Navoiy aqidasiga ko'ra, u orzu qilgan jamiyatning xalqi butunlay boshqacha toifada bo'lishi lozim bo'lgan. Bunday xalq yashayotgan jamiyatda g'am- g'urbat, jafo, kulfat bo'lmasligi kerak. Yetim-yesirlar eng hurmatli kishilardek



mehribonlik ko'rishlari kerak. Bunday jamiyatda zo'ravonlik, kishilar qalbiga ozor beradigan qabih ishlarning ildizi qurishi kerak. Navoiy orzu qilgan jamiyat butunlay yangicha jamiyat bo'lgan va bu g'oya uning insonparvarlik g'oyalarining eng yuqori nuqtasi sifatida namoyon bo'lgan. Shuning uchun ham Navoiy orzu qilgan ideal jamiyatning davlat tamoyili mamlakatni bo'linib ketishdan saqlashga qaratilgan bo'lib, u bu davlatni xalq manfaati va tinchligi bilan bog'lab tushuntirgan va bu o'z navbatida XV asrning ruhini ifodalab turgan.

Faylasuf V.Zohidov takidlaganidek, Navoiyning markaziy monarxiyaga qarashida juda xarakterli bo'lgan lahza shuki uningcha (Navoiycha), monarx ijtimoiy hayotning tizimini yolg'iz qo'lida saqlagan bo'lsa-da, uning (monarxning) huquqi muayyan darajada cheklangan bo'lishi kerak, u o'zining atrofiga katta kishilarni, yaxshi, aqlli, sof vijdonli, tadbirli, xalqparvar maslahatchilarni, ya'ni o'z ilmini xalq baxti xizmatiga qo'llagan ahl egalarini to'plashi kerak.

M.Oripovning fikriga ko'ra, Alisher Navoiy temuriylar imperiyasi siyosiy inqirozining guvohi bo'lib davom etayotgan separatistik tendensiyalar va o'zaro urushlar orqasida milliy chegaralanish hamda milliy davlat tashkil qilish tendensiyasini ko'rgan bo'lishi mumkin. Navoiy uchun monarxning kuchli, mutlaq hokimiyati g'oyasi temuriylar imperiyasi timsolida tarixning o'tkinchi bosqichi sifatida namoyon bo'lgan.

Amir Temur va temuriylar davri (1370—1505) siyosiy-huquqiy qarashlarini tahlil etishda buyuk faylasuf shoir Alisher Navoiy merosi alohida ahamiyatga ega.

Alisher Navoiy siyosiy qarashlarining shakllanishi va rivojlanishini nisbiy ravishda ikki davrga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq. Birinchi davr — uning yoshlik yillaridan to 1476 yilda Husayn Boyqaro hokimiyatidagi vazirlik mansabidan iste'fo etib ketishigacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga olsa, ikkinchi davr esa 1476 yildan boshlab, umrining so'nggi kunlarigacha bo'lgan vaqtni qamrab oladi.

Birinchi davrda Alisher Navoiy mamlakatda hokimiyat tepasiga adolatli podsho kelishiga, baxtli jamiyatga erishish mumkinligiga ishonadi hamda uni amalga oshirish uchun kurashadi. Navoiyshunos olimlarning yozishicha, „Navoiy davlat ishida turganida ham bir nafas bo'lsa-da, xalqni esdan chiqarmadi. U davlatni xalq manfaatlarini ko'zlovchi, xalq orzularini amalga oshiruvchi vositaga aylantirishga, davlat arboblari xalq xizmatchilariga aylantirishga tirishdi va bu ishda uning o'zi namuna bo'ldi. U davlat ishlarini intizomga solishga, hukumat idoralarini, saroyini yaramaslardan, xalq hisobiga zarbof to'n



kiyuvchi, ayshu ishrat qiluvchi ifloslardan, amalparastlardan, fitnachilardan tozalash, ularni fosh etish, qamchilash uchun qo'ldan kelganicha harakat qildi.

Navoiy idealidagi Iskandar obod o'lkalarni, madaniyatli shaharlarni vayron qiluvchi ya'juj-ma'juj degan maxluqlar yo'lga devor solib, jabr ko'rgan xalqni ular zulmidan xalos qiladi. Ya'juj-ma'juj birinchi marta Tavrotga tilga olingan (Gog-Magog). Qur'oni karimning „Kahf“ surasida (83-98- oyatlar) ham bu haqda xabar berilgan. Qur'onda keltirilishicha, Iskandar Zulqarnayn kun chiqarga qarab qilgan yurishlarida ya'juj-ma'juj zulmidan azob chekkan xalqni uchratadi. Ular: „Senga boj to'laymiz, bizni shu balodan qutqar“, — deb so'raydi. Iskandar ularga qarab: „Parvardigorim bergan qudratga tayanib, sizlar bilan ya'juj-ma'juj orasida bir mahkam devor qurayin“ (18, 95), deb bu ishni amalga oshiradi. Aslida esa Navoiy nazarida ya'juj-ma'juj to'ymas va tiyilmas nafs ramzi edi.

Navoiy podshohsiz raiyat va davlatsiz jamiyat bo'lishi mumkin emas, deb biladi. Jamiyat bo'lishi uchun davlat bo'lishi zarur. Chunki manfaat kishilarni bir-biridan ajratadi va ayni paytda birlashtiradi. Bu — jamiyat qonuni. Shu qonunni nazorat kilish — odil podshoning vazifasi. Podsho va lashkar, podsho va boshqaruv tizimi xalqning osoyishta hayot kechirishiga kafil, deydi Navoiy. Odamlar bilim va amaliy faoliyat, zehnu zakovatda bir emas, deydi u. Birov aqlli, birov o'ta aqlli, kimningdir aqli kam, birov esa johil. Chunki har bir kishida Allohning bir sifati aks etadi, sifatlar esa turlicha, „ikki sifat birday“ emas. Shunday bo'lgach, axloq nuqtai nazaridan ham odamlarni teng bir holga keltirib bo'lmaydi. Demak, ularning mol-mulki teng bo'lishi amrimahol.

Navoiyning ilm-ma'rifat yo'lida yoshligidan juda, qattiq jahd qilganligi, xalq el-yurt osoyishtaligi yo'lida Husayn Boyqaro davlatini mustahkamlash, «Haq va adolat» uchun ham qalam, ham qilich bilan, «o'tga va suvga kirib» xizmat qilganligi, to'plagan mol-mulkidan el-yurtga osh berib, ko'priklar, karvonsaroylar, rabotlar, maqbaralar, bog' – xiyobonlar qurdirganligi, oila qurmay, toq o'tgani, umri intihosida — o'limidan oldin butun mol-mulki, boyliklarini xizmatchilariga bo'lib berib, qullarini ozod qilib yuborganligi oddiy musulmonchilik farzi bo'lmay, hazratning jihod qilganligi, javonmardlik ko'rsatganligi, asl «ahdi futuvvat»dan bo'lganligini ko'rsatadi. Yuqorida keltirilgan, tahlil qilingan dalil-mulohazalar Navoiyning butun hayoti va e'tiqodi malomatiya maslagi talablariga zimdan rioya qilingan holda kechganligini tasdiqlaydi. Uning piri Jomiy ham zimdan, qisman bo'lsa- da, ana shunday mavqeda turgan.

Navoiyning Sayyid Hasan hayotida yozgan asarlari tadqiqotchilarimiz e'tiboridan chetda qolgan emas. Akademik V.Abdullaev, V.Zohidov, A.



Hayitmetov, B.Valixo'jaev, S.G'anieva, N.Mallaev va boshqa olimlarning ishlarida bu asarlar tilga olinadi. Ammo, shuni qayd etish kerakki, mavjud tadqiqotlarda mazkur asarlarga, asosan, Navoiy tarjimai holi, ijtimoiy-siyosiy va estetik qarashlarini yoritish maqsadida murojaat qilingan. Navoiy uchun esa Sayyid Hasan — insoni komil timsoli, "Holoti Sayyid Hasan Ardasher"da u ana shunday inson siymosini yaratgan. Navoiy "Xamsa"si dostonlarida yaratilgan ijobiy-ibratli timsollar bilan Sayyid Hasan orasida o'xshashlik ko'p, agar "Xamsa" obrazlari badiiy orzu-mushohada asosida vujudga kelgan tahayyuliy-romantik tiplar bo'lsa, Sayyid Hasan muayyan tarixiy shaxs, ya'ni ulug' shoir o'zining hayolotidagi ideal insonning xususiyatlarini o'z zamondoshida ko'ra olgan, deyish mumkin.

"Hayrat ul-abror" va "Mahbub ul-qulub" asarlaridagi axloqiy-falsafiy qarashlar bilan "Holoti Sayyid Hasan Ardasher" asarida ifodalangan fikrlar ham aksar o'zaro o'xshash. Shunday qilib, Navoiy nazarida komil inson xayoliy bir narsa emas, balki real hayotiy odamlar, biroq shunisi borki, bunday odam tariqat sulukini qabul qilgan chinakam darvesh bo'lishi kerak. Boshqacha aytganda, ideal inson — bu kamida go'zal axloqi, zohiriy va botiniy ilmlarni egallagan foniy tabiat faqir kishi. Sayyid Hasan buning namunasi hisoblangan.

Bizga Jamshid, Faridun, Sulaymon, Xizr, Suhaylo, Jomasb, Ahraman, Suqrotlar va ularning «Farhod va Shirin»ida tasodifiy emasliklaridir. Navoiy Iskandari ham bizga tanishdir: ilmlarni o'zlashtirgan, butun o'lkalarni olgan, oqni qoradan, yaxshini yomondan ajratgan ulug' olimdir, xalqparvar va tadbirli podshoh sarkardadir. Uning mamlakatida haryon obod va hamma shod. U, har qadamida adolat, ilm tartib-qoidalariga, olimlarning aytganlariga rioya qilgan va adolat, ilm nurlari bilan o'lkani yoritgan. U, dunyoning ko'p sirlarini ochgan, bilgan, mubhamliklarini hal etgan. Uning dili pok, o'zi pok, so'zi pok, ko'zi pok. U, borliqqa poklik bilan, pok ko'z bilan qaraydi. Farhodning axtargani va nihoyat topgani Iskandar tilsimida mana shu Iskandar yashiringandir. Uni topish, unga ega bo'lish — Iskandar bo'lish. Iskandarni o'zlashtirish, Iskandar yo'liga tushish ham demakdir (shunday orzuni ko'zlaydi Navoiy). Farhodning axtargani va nihoyat topgani Iskandar oynasi (Jamshid jomi, oinai jahonnamo) va unga ega bo'lish — borliq qanday bo'lsa, uni shuncha va shunday ko'rish, uni egallash, unga Iskandar qanday munosabatda bo'lgan bo'lsa, shunday munosabatda bo'lish, har narsani Iskandarcha ko'rish, Iskandarcha harakat qilish, demakdir. Bu tilsim, oina binobarin qandaydir g'ayri hayotiy, mistik ma'noga, xarakterga ega bo'lmasdan, chin hayotiy ma'nolarni o'z ichiga oladi, real maqsadni ko'zda tutadiki, buni yuqoridagi iqtibosdan ham juda yaxshi anglash mumkin: Navoiy



to'g'ridan-to'g'ri aytadiki, Iskandar butun dunyoni, yetti kishvarni o'z qo'liga olib, «...bu gardunvash hisorni» tilsim qilib, unga (bu tilsimga) o'zining o'sha yetti kishvarni qo'lga kirgizib topgani butun naqd xazinalarni, naqd qimmatbaholarni, mo'jizakor hikmatlarni solib-yashirib ketgan...

Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonidagi Iskandar timsolini yaratishda, birinchidan, o'zigacha u haqdagi nasriy va nazmiy asarlarni, xalq og'zaki ijodini, turli rivoyat, afsonalar va sosoniylar sulolasi davridan boshlab to o'zigacha Iskandar to'g'risidagi dostonlarni o'rganib chiqqan.

Ikkinchidan, Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonini va Iskandar timsolini yaratishda Uyg'onish davrining so'nggi bosqichi bo'lmish temuriylar davrining o'ziga xos xususiyatlari, talab va ehtiyojlari, istaklarini nazarda tutgan bo'lishi kerak. Muallif XIV-XV asrlarda inson va uning fazilatlariga, unga bo'lgan e'tibor kuchli ekanligini, u - oliy qadriyat, butun mavjudotlarning sarvari va gultoji ekanligini hisobga olgan. Shuning uchun "Saddi Iskandariy" asari boshqa dostonlardan insonga bo'lgan munosabat kuchliligi, insonparvarlik, odamiylik g'oyalari va umuminsoniy qadriyatlarga boyligi bilan ajralib turadi.

Jomiy, Navoiy, Koshifiy va boshqalar o'z zamonidagi mavjud jamiyatga tanqidiy qaradilar, davlat boshqaruvi usuliga, uning tamoyillariga nisbatan o'z noroziliklarini bildirdilar. Mutafakkirlar mukammal jamiyat, fozil davlat, ma'rifatli va dono shoh to'g'risidagi utopik g'oyalarni yaratib, uni o'zlari yashagan tuzumga muqoyasa qildilar. Ularning utopik g'oyalari ijtimoiy illatlar, jamiyatdagi yaramas hatti-harakatlar va axloqsizliklarning turli ko'rinishlariga qarshi kurashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ulug' gumanistlarning utopik g'oyalari oddiy xalqqa yaqinligi va tushunarligi bilan ajratib turar, kelajakdagi baxtli jamiyat to'g'risidagi ezgu niyatlarni aks ettirar va ularning gumanistik talablariga javob berar edi.

"Hayrat ul-abror" dostonida uch hayratdan so'ng yigirma maqolat keladi. Bu maqolatlarda Navoiy adolatli jamiyat, adolatli sulton, odil podshoh orzusi, zolim podshohlar mazammati (tanqidi), hokimiyat va xalq ijtimoiy tenglik va tengsizlik, adolat va adolatsizlik hakida. Doston boblaridan birida imom Faxr Roziy bilan Xorazmshoh Alouddin Muhammad uchrashuvi tasvirlanadi. Ruhoniy olim va Xorazmshoh hammomda uchrashib qoladilar. Xorazmshoh imomdan qiyomat hakida so'raydi. Imom unga "Qiyomatda shohlar va gadolar xuddi hammomdagi kabi Alloh huzurida teng bo'ladilar. Lekin u vaqtda zolim podshohning boshi egik, hijolatda, zulm ko'rgan - mazlumnig yuzi yorug', qaddi tikdir. Qiyomatda podshoh kambag'al, bechora, mazlum oldida gunohkor bo'lib, jazosini kutib turadi. Bechora, mazlum esa, jannatga kiradi, deydi. Navoiy shu



manzara orqali o'z zamonidagi va kelajakdagi barcha podshohlarni ogohlantiradi, raiyatga, xalqqa zulm qilmaslikka chaqiradi.

Buyuk mutafakkir butun umri davomida xalq g'amini yedi, g'arib, beva-bechora va musofirlar uning noz-ne'matidan bahramand bo'ldilar. Navoiy xo'rlangan, och-yalang'och kishilarni qo'llab-quvvatlash, og'ir damlarda, insonlarning boshiga kulfat tushganda yordam berishni haqiqiy saxiylik deb bildi, saxiylikni boylikka, hirs qo'yishga, xasis va ochko'zlikka qarshi qo'ydi.

Mutafakkir Alisher Navoiyning adabiy va ijtimoiy-falsafiy qarashlari, dono fikrlari, ibratomuz so'zlari, pand-nasihatlari va o'gitlari hozir ham o'z tarbiyaviy ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Zeroki, ular insonparvarlik va ma'naviy-axloqiy fikrlarga boy bo'lib, barkamol va sog'lom avlodni tarbiyalashda, ular ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishda, milliy istiqlol goyasining ildizlarini to'g'ri tushunishda, aqidaparastlik va terroristik xurujlarga qarshi kurashda yordam beradi.

Nizomiyniing xayoliy jamiyat haqidagi g'oyalari butun o'rta asr uchun xalqchil va ilg'or bir hol bo'lib, bu g'oyalarni xususan Navoiyning ulug' zamondoshi Abdurahmon Jomiy o'zining «Xiradnomai Iskandariy» dostonida yanada rivojlantirdi. Bu bilan XV asr Xuroson va Movarounnahr adabiyoti uchun ham Nizomiy g'oyalarining muhim ekanini ochiq-ravshan ta'kidladi. Ye. E. Bertels Jomiy bu asarida «Nizomiy utopiyasining asosiy belgilarini saqlashdan qo'rqmadi»,— deb yozganida to'la haq edi.

Alisher Navoiy ijodini hozirgi kunda keng adabiy, ilmiy, falsafiy yo'nalishda o'rganayotgan ekanmiz, Nizomiyning hayoliy jamiyat to'g'risidagi fikrlariga uning qanday munosabatda bo'lganini aniqlash ham muhim masaladir.

Navoiy mamlakatni shohsiz boshqarish g'oyasiga juda yaqin kelgan vaqtlari ham bo'lgan. Masalan, «Farhod va Shirin» dostonida u Mehinbonuni podshoh deb emas, oddiy hukmron deb ataydi. U oddiy hukmron bo'lsa ham, mamlakatni aql va adolat bilan boshqargani uchun «zar- rinkamarlar» uning xizmatida:

Ki bu kishvardakim, rashki jinondur,
Bukun ismat panohi hukmrondur...
Belin garchi kamar topmay kamohi,
Vale zarrinkamarlardur sipohi.

Bu o'rinda Mehinbonu boshqarayotgan mamlakatning ko'rinishi jannatning rashkini keltiradigan darajada obodligi, boyligi, bizningcha, u yerda hukmron ideal tartib-qoidalaridan, xalqqa podshohlik zulmining bartaraf etilganidan, deb tushunmoq kerak.



Mamlakatni tenglik qoidasi asosida shohsiz, adolat bilan boshqarish Nizomiy xayoliy orzusining eng muhim belgilaridandir. Navoiyning orzu etilgan jamiyat g'oyalariga yuqorida aytilganndan ko'ra yaqinroq kelgan vaqtlari ham bo'lganini ko'rsatadi. Buning uchun Navoiyning «Xamsa» dostonlari va she'riy devonlari tahlili bilan cheklanmasdan shoirning boshqa asarlariga, xususan, so'nggi yirik asari – «Lisonut – tayr»ga ham murojaat etish maqsadga muvofiqdir.

«Lisonut-tayr» dostonining yetti xayoliy vodiylar tasviridagi to'rtinchi vodiylar, ya'ni Istig'no vodiysi tasviri yaqqol misol bo'la oladi. Bu o'rinda Navoiy, bizningcha, Nizomiyning xayoliy jamiyat haqidagi g'oyalariga o'z munosabatini bildirgan, ularning o'ziga xos g'oyaviy-badiiy talqinini yaratgan,— deyish mumkin. Bu vodiylar tasvirida boshlanishidan quyidagi diqqatga sazovor baytga duch kelamiz:

Vodiy ondin so'ngra Istig'nodurur,
Onda teng a'lovu gar adnodurur .

Bu baytning ikkinchi misrasidagi g'oyani istig'no vodiysi tasvirining bosh g'oyaviy leytmotivi deyish mumkin. Ya'ni bu vodiylarga xos bosh xususiyat hamma narsalarning, to'g'rirog'i, jamiyatdagi barcha kishilarning, hukmron tabaqalar bilan quyi tabaqalarning o'zaro tengligidir. Bu vodiylarda muntazam istig'no shamoli esib, u hamma narsaga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatib turadi. Istig'no bulutlaridan yoqqan yomg'irlar esa «yuz tuman olamni» buzishga, hayotdagi hamma yomonliklarni yuvishga, yengishga qodir.

Nizomiyning ideal jamiyat tasvirida «Bizning mollarimiz yirtqichlardan va sherdan qo'rqmaydilar. Yirtqichlar bizning podalarimizga og'iz cho'zsa, o'sha vaqtnng o'zidayoq halok bo'ladilar», degan mazmunda satrlar bor. Bizningcha, Navoiy bu o'rinda Nizomiyning o'sha baytlaridagi fikrlarni rivojlantirib, kuchaytirib, kichiklarni kattalardan, zaiflarni yirtqichlardan ustun, zabardast qilib tasvirlamoqda. Bunda ulug' shoirning mazlumlarga, zaiflarga hamiyatini, qayishayotganini sezish qiyin emas. Navoiy kuchsizlarning kuchlilardan, kichiklarning kattalardan ozor chekmaydigan bir xayoliy vodiylar haqida so'z yuritayotgani ham ko'zga tashlanib turibdi.

Nizomiy tasvirlagan Shimol o'lkasining asosiy xususiyatlaridan biri tenglik bo'lsa, yana biri unda shohning yo'qligi degan edik. Navoiy Istig'no vodiysida shoh yo'q demaydi. Lekin, bu yerda, Navoiy tasvirlashicha, shoh va gado bir hududda ega, teng:

Yetti kishvar ichra shohe qahramon,
Bir gado onda hamonu ul hamon .



Tenglik g'oyasi Istig'no vodiysi bilan bog'liq tasvirning boshidan oxirigacha singib ketgan. Bundagi hamma tasvirlar ana shu gumanistik g'oyaning, adolat g'oyasinnng badiiy ifodasiga xizmat qiladi desa ham bo'ladi. Hatto ko'kdagi mana-man degan minglab maloikalar bir chetda qolib, kutilmaganda sharaf tojini kiyish yerdagi oddiy odamga nasib bo'lgan. Ya'ni, inson ularga nisbatan ko'proq ulug'langan:

Bo'ldi ming xayli maloik bartaraf,

Nogoh odam kiydi bir toji sharaf.

XV – XVI asrlar Italiya adabiyotining, umuman Uyg'onish davri Yevropa adabiyotining Lyudoviko Ariosto, Makiavelli, Tasso, Erazm Rotterdamskiy, Fransua Rable kabi namoyandalari asarlari bilan har tomonlama hamohangdir. Bu esa Navoiy ijodining Sharqadabiyoti doirasidagina emas, jahon adabiyoti doirasida ham eng yuksak cho'qqilarga ko'tarila olganini ko'rsatuvchi yorqin dalildir.

Alisher Navoiyning davlat va ideal jamiyat haqidagi falsafiy – tasavvufiy dunyoqarashi haqida xulosa qilinganda, odil podsho g'oyasi, jamiyatni yuksak axloq qoidalari aossida qaytadan tuzish imkoniyatiga ishonish Navoiy tomonidan ilgari surilgan – davlat ta'limining asosini tashkil qilgan.

